

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. M.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2005-yil 28-noyabr - 4-dekabr N:48 (66537)

Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy nomi bilan ataluvchi Navoiy viloyati kundan-kunga chiroy ochib, yashnab-yasharib bormoqda. Ko'chalarning keng va ravonligi, muhtasham binolar, yangi-yangi ta'lim maskanlarining qad rostlayotgani, ertamiz egalari bo'lmish bolajonlarga yaratilayotgan shart-sharoitlarni ko'rib ko'nglingiz quvonchga to'ladi. Bu yerda rus, qozoq, qirg'iz, tatar, tojik, arman, gruzin kabi turli millat

vakillari O'zbekiston-umumiy uyimiz, degan so'zlarga amal qilib yashashadi. Viloyatdagi ta'lim maskanlarida 183 mingdan ziyod o'quvchi yoshlar fan sirlarini qunt bilan o'rganishayapti. Ular orasida fan olimpiadasi g'oliblari, iqtidorli sportchilar, ijodkor yoshlar, san'at ixlosmandlari talaygina. Navoiylik tengdoshlaringizning bugungi hayoti, erishayotgan yutuq va kamchiliklari haqida o'zlaridan eshitaylik-chi:

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

O'ZBEKISTON - UMUMIY UYIMIMIZ

Karmana tumanidagi Fayzulla Xo'jayev nomli 2-o'rta maktabda 1163 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ushbu ta'lim dargohida 73 nafar malakali o'qituvchi mehnat qiladi.

Maktabda o'zbek va rus tiliga ixtisoslashgan sinflar mavjud. Keng va yorug' sport zali, turli fan to'garaklari bolajonlar ixtiyorida. Nuriya Ablyazova rahbarlik qilayotgan 11-"A" sinf o'quvchilari maktabning faxri hisoblanisharkan. Nega deysizmi? Chunki ular orasida a'lochilar, ilg'or terimchilar, sinfning "shoiralari"-yu sport ixlosmandlari talaygina. Ushbu rus sinfida tahsil olayotgan 26 nafar o'quvchining bari o'zbek tilida muloqot qilishlarini ko'rib,

Ramil SAYFULLIN:

- Men fizika, matematika, rus tili, o'zbek tili, jismoniy tarbiya fanlarini juda yaxshi ko'raman. Muntazam ravishda futbol bilan shug'ullanaman.

Sinfimiz o'quvchilari barcha jamoat ishlarida faol. Tumanimiz dehqonlariga ko'maklashib, har birimiz kuniga kilogrammdan «oq oltin» terdik. nashrlarga obuna bo'lganmiz. Men o'zim "Tong yulduzi" gazetasi va "Sinfosh" jurnaliga obuna bo'ldim. Ushbu nashrlarning har bir sonini muntazam ravishda o'qib boraman. "Tong yulduzi"ga bir taklifim bor: gazetada berilayotgan krossvordlarning javoblari ham berib borilsa. Yana jahonning mashhur sportchilari hayoti kengroq yoritilsa ayni muddao bo'lardi.



Navoiy viloyatidagi 11-son sport maktabining karatechilar to'garagi.

8 0 - 9 0

Paxta pullarimiz evaziga turli

o'zim "Tong yulduzi" gazetasi va "Sinfosh" jurnaliga obuna bo'ldim. Ushbu nashrlarning har bir sonini muntazam ravishda o'qib boraman. "Tong yulduzi"ga bir taklifim bor: gazetada berilayotgan krossvordlarning javoblari ham berib borilsa. Yana jahonning mashhur sportchilari hayoti kengroq yoritilsa ayni muddao bo'lardi.

Gulruh OCHILOVA: - Biz maktabni tugatish arafasida turibmiz. Barcha sinfdoshlarim turli o'quv yurtlariga kirib o'qish orzusida. "Tong yulduzi" sahifalarida o'quv dargohlari haqida ham ma'lumotlar berilsa, yaxshi bo'lardi.

Feruzbek NASRIDDINOV: - Kelajakdagi orzuim Diplomatiya Universitetiga kirib, ona-Vatanimiz ravnaqiga o'z hissamni qo'shishdir. Buning uchun barcha fanlardan puxta tayyorgarlik ko'rayapman. Diyorimizda biz yoshlarning puxta bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bas, shunday ekan, vaqtimizning oltin lahzalari bekor o'tmasin deyman.

Albina ABDURASHIDOVA: - Maktabimizda kompyuterlar yana ham ko'paysa, internetdan to'g'ridan-to'g'ri qiziqarli ma'lumotlarni olgan bo'lardik. Bitiruvchi sinflarga oliy o'quv yurtlariga kirishimiz uchun yangi-yangi manbalar kerak bo'ladi. She'riyatga qiziqqanim bois turli mavzularda she'rlar yozib turaman. Ularning birinchi tinglovchilari albatta sinfdoshlarimdir. Sinfimizning ahilligiga butun maktab havas qiladi.

Navoiy viloyatidagi barcha ta'lim maskanlarida o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun qator to'garaklar muntazam ishlab turibdi. Ular bolajonlarning sevimli maskaniga aylangan. Nurota tumanida bo'lib o'tgan "Maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirish" mavzusidagi seminar ham aynan ana shunday to'garaklar faoliyatiga bag'ishlandi. O'quvchilar o'zlari o'rganayot-



gan naqqoshlik, zardo'zlik, kulolchilik kabi hunarlarning sir-asrorlarini namoyish etishdi. Bunday ko'rgazmalar viloyatning ta'lim-tarbiya maskanlarida shunchaki o'tkazilmaydi. Bu ishga ularning ota-onalaridan tortib, ustozlari-yu mahalla faollarigacha bosh-qosh. Yaqinda mavjud to'garaklar qatoriga "yosh sayyohlar va o'lkashunoslar" markazi ham qo'shildi. Uning bugungi kundagi qatnashchilari soni 300 nafardan oshib ketgan.

- To'garaklarning asosiy moddiy texnika bazasini mustahkamlash, qo'shimcha ish o'rinlarini joriy etish, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash bizning zimmamizda, -deydi viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Sherati Umarov. - Chunki bunday to'garaklar yosh avlod tarbiyasida juda muhim. Navoiylik tengdoshlaringizning oydin orzulari bir olam. Ularning ko'zlayotgan manzillari sari elituvchi yo'l-lari ravon bo'lsin.

Jamila ERDONOVA.

YANGI MARKAZ

DIQQQAT OBUNA

Aziz bolajonlar, respublikadagi tengdoshlaringiz hayoti, qiziqish va intilishlari haqida maqolalar, ichakuzdi handalar-u biri bog'dan, biri tog'dan so'zlovchi hangomalar, sizni sirli olamga yetaklovchi ertaklar-u boshingizni obdon qotiradigan krossvordlar o'qishni xohlaysizmi? Unda sevimli nashringiz «TONG YULDUZI»ga obuna bo'lishga shoshiling!

**Obuna bahosi bir yilga 5244 so'm.
Nashr indeksi - 198.**

BIZDA HAM IMKONIYAT BOR

Tumanimizda biz o'quvchi yoshlarga bo'lgan e'tiborning bir ko'rinishi sifatida shu yilning o'zida «yosh ijodkorlar uyi» va bir qancha sport inshootlari qurildi. Yaqinda ularning soni yana bittaga ko'paydi. «Bel-tepa» mavzesida qad rostlagan sport majmuasi ixtiyorimizga topshirildi. U yerda futbol, basketbol, yengil atletika, shaxmat-shashka, stol tennisi kabi bir qancha to'garaklar mavjud. Men ham do'stlarim bilan ana shu majmuaga qatnayapman. Endi bizda ham sport bilan muntazam shug'ullanib, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lish uchun imkoniyat bor. Bizni sport bilan oshno qilib, bo'sh vaqtimizning mazmunli o'tishiga hissa qo'shayotgan majmua tashabbuskorlariga katta rahmat.

Sevara TOSHPO'LATOVA,
Shayxontohur tumanidagi 299-maktabning
11-sinf o'quvchisi.

DADAJONIM TALABCHAN HAKAM

Ko'pchilik san'atkorlarning san'at yo'liga kirishlariga biror inson sababchi bo'larkan, deb ko'p eshitganman. Men ham san'at yo'lini tanladim. Juda kichikligimdan, bog'chaga qatnab yurgan chog'larimdan qo'shiq kuylashni yaxshi ko'rardim. Bayram va tantanalarda qo'shiq aytib, hammani xursand qilardim. Ayniqsa, «Qorparchalar» nomli qo'shig'imni takror-takror kuylatishardi. Mendagi bu ishtiyoqni payqagan dadam Toshkentdagi 182-musika maktabiga olib keldilar. Hozir bu maskanda skripka va fortepiano chalishni o'rganyapman. Mana 4 yildirki, «Nastarin» guruhiga a'zoman. Ustozim Li Angelina Anatolevnadan san'at sirlarini o'rganib kelyapman.

O'tgan yili guruhimiz bilan Turkiyada bo'lib o'tgan



«Bolalar bayrami» festivalida qatnashdik. Hozirgi kunda «Yomg'iroy», «Qizilishton», «Oymomo», «Yangi yil», «Shirin qiz» kabi qo'shiqlarim soni ancha ko'payib qoldi. Ularning birinchi tinglovchisi ham, talabchan hakami ham dadajonim - Sunnatilla Qo'ziyevdirlar. Ulg'aygach, o'zim orzulagandek haqiqiy san'atkor bo'lolsam, dadajonimdan behad minnatdor bo'lardim.

Farog'at ABDUSALOMOVA.

«Tong yulduzi»! Men senga birinchi marta xat yozypman. Sahifalaringdagi tengdoshlarim va opa-akalarimning ijodlarini o'qib, men ham tabib buvim haqida yozgim keldi.

Biz «Burama» degan qishloqda yashaymiz. Qishlog'imizdan baland-baland tog'lar ko'rinib turadi. Bog'larimiz ham ko'p. Xuddi shu qishloqda Karimaxon degan tabib bor. Ular mening buvijonim bo'lardilar. Yaqinda-chi, bizning uyimizga bir bemorni olib kelishdi. Aytishlaricha, bu odam 8 yildan beri bir joyda yotib qolgan ekan. Men ham buvimning yonlarida turib, bu odamni kuzatdim. Juda ozib ketganligidan qo'rqib ham ketdim. Buvim esa kasal odamni astoydil tekshirib, yaqinda yurib ketasiz, dedilar. Oradan 5-6 kun o'tib, go'yoki ertaklardagidek haligi odam yurib ketdilar. Buvimga ular ko'p rahmatlar aytib, yaratganga shukur deb, ko'zlariga yosh oldilar...

Men ham har kuni maktabdan kelib, ko'chada bekor yurmayman, buvimdan tabiblikning sirlarini o'rganmoqdaman.

Umidaxon FAZLIDDINOVA,
Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi
27-maktabning 2-sinf o'quvchisi.

Shohida Alimova Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 11-sinfidagi a'lochi o'quvchilardan biri. San'atni sevadi, rasm chizadi, kiyimlar tikadi, she'rlarga kuy bastalaydi. Maktab sahnasi uchun ssenariylar yozib, kechalarda boshlovchilik qiladi. Shirali ovoza qo'shiq kuylab, davralarga fayz kiritadi.

Yaqinda tuman miqyosida uyushtirilgan «Zulfiyaxonim qizlari» ko'rik-tanlovida g'olib chiqqan Shohida ayni kunlarda tanlovning viloyat bosqichiga qizg'in hozirlik ko'ryapti.

Shohida yana maqola va lavhalar ham yozadi. Yozganda ham shunchaki emas, biror muammoni o'rta tashlab, tengdoshlarini uning yechimini topishga undaydi. Shohidaning quyidagi maqolasini o'qisangiz, bunga o'zingiz amin bo'lasiz:

MUSIQA JONU DILIM

Bu yil maktabni tamomlayman. Shu 11 yil davomida maktabimizda musika darsini yo'lga qo'yilishini orzu qilib yashadim. Shahardagi dugonalarim maktablaridagi musika darslari haqida gapirishsa, havasim keladi. Ayrim o'quvchilar cholg'u asboblari ni ermak qilib chalishlarini eshitib qolsam, qaniydi shu asboblari bizning maktabda bo'lganda edi, jonu dilim bilan chalardim, deb o'ylayman. Afsuski men o'qiyotgan maktabda asboblari tugul musika o'qituvchisi ham yo'q. Mendagi musiqaga bo'lgan qiziqish kimdan o'tgan bilmadim,

balki o'sha 1-sinfidalgimda musika fanidan dars bergan A z i z a opamdandir. Ular meni ko'pincha ko'rik-tanlovlarga olib borardilar. Balki 17-maktabda bo'lgan «San'at g'unchalari» tanlovida 1-o'rinni olganimga, qalbimda

san'atga mehr uyg'ongandir. Bu qiziqishim 3-sinfga o'tganimda so'ndi. Negaki ustozim maktabdan bo'shab ketdilar. O'sha vaqtlardagi holatimni tasavvur qila olmaysiz. Oradan to'rt yil o'tgandan keyin maktabimiz yetakchisi Nilufar opam yonlariga chaqirib:

«Shohida, 2-maktabda q o ' s h i q t a n l o v i b o ' l a r k a n, borasanmi?»-deb qoldilar. Men shoshib «ha» deb javob berdim. Vatan haqida qo'shiqlarhirgoyi qilib, o'z xolimcha tayyorlanib yurdim. Omadni qarangki, ko'rik-tanlovda 1-o'rinni egalladim. Sevinchimdani yig'lab yubordim. Shu-shu Nilufar opam menga qo'shiq haqida bilganlarini o'rgata boshladilar. 11-sinf gacha ko'pgina yutuqlarga erishdim.

Mana bu yil 1-noyabrda bo'lib o'tgan «Zulfiyaxonim qizlari» ko'rik-tanlovida «San'at yo'nalishi» bo'yicha 1-o'rinni egalladim va men bundan juda xursandman. Bu yutug'im meni

san'at olamiga qo'limdan mahkam yetaklab kirdi. Men dugonalarimga shunday demoqchiman: V a q t i n g i z, xohishingiz va albatta shirali ovozingiz bo'lsa, san'at yo'liga kiring. Chunki san'atga oshno t u t i n g a n insonlarning qalbi doimo ezgulik va

yaxshilikka xizmat qiladi. U bizga hayot qiyinchiliklarini oson yengishda yordam beradi. San'atni sevgan inson hech qachon xor bo'lmaydi.

Shohida ALIMOVA,
Yangiyo'l tumanidagi
3-maktabning
11-sinf o'quvchisi.



«Bola huquqlari bolalar nigohida» tanloviga

O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan diyorimiz hozirda demokratik davlat qurish bo'sag'asida turibdi. Demokratik davlat degani bu har tomonlama yetuk, ozod va erkin huquqlikka egalik tushunchasidir. Tan olishimiz kerak, ko'pchiligimiz o'z huquq va burchlarimizni hali yaxshi bilmaymiz. Shuning uchun ularning poymol bo'layotganini ham sezmaymiz.

Aytaylik,

AYB

m a k t a b o'quvchisi bozordan biror narsa harid qildi. Sotib olingan mahsulotning sifati, saqlanish muddati haqida so'raganida unga qo'pollik bilan, mana, turibdi-ku, shuniyam ko'rmayapsanmi, deya javob beradilar. Yana bir holat: biz sotuvchidan olgan mahsulotimiz uchun chek qog'ozini so'rasak, sen zumrashaga chek talab qilishni kim qo'yibdi, deya jerkib berishadi. Shunda o'z huquqlarini

bilgan o'quvchi chek talab

qilishga u ham to'la haqli ekanligini tushuntirib qo'ysa, sotuvchi qilgan ishidan uyalib qolardi.

Biz qizlar bo'sh vaqtimizda do'konlarni aylanib yurishni yoqtiramiz. Ba'zi bir shax-

siy do'konlarga kirib qolsak, yoshligimizni ko'rib, biz so'ragan buyumni ko'rsatib yuborish u yoqda tursin, hatto savollarimizga ham javob qaytarishmaydi. Menimcha, ular bizning huquqlarimizni poymol qilishadi.

O'tgan yili buvijonim bir sihatgohda davolangandilar. Ular bilan birga 14 yoshli bir qizcha ham davolanibdi. Buvimning aytishlaricha, fizioterapiya muolajalarini kattalarga o'z vaqtida, keragicha muddatga qo'yib berishar, haligi qizga esa nomigagina qo'yib, darhol turg'azib yuborishar ekan. Ba'zida esa, chiroq o'chib qoldi,

ertaga kelarsan, deb qaytarib ham yuborisharkan. Bolalarini yetaklab kelgan ayollar qizchani navbati bo'lsa-da, u n d a n

avval kirib ketaverishar ekan. Bu holdan achchiqlangan buvim bir kuni:

-Bu qizchaga ham muolajani keragicha beringlar-da. Axir uning ota-onasi ham sog'ligini mustahkamlashi uchun keragicha pulni to'lab qo'yishgan-ku, deya tanbeh beribdilar hamshira qizlarga...

Mana sizga bola huquqlarini poymol qilishning yana bir ko'rinishi.

O'ylashimcha, bunday holatlarga nafaqat kattalar, o'zimiz ham aybdormiz. Huquqlarimizni bilmaymiz. Ularni to'liq o'rganmas ekanmiz, o'zimizni, kelajagi bizga ishonib topshirilayotgan yurtimizni qanday himoya qilamiz?

Nodira SAGATOVA,
«International House -
Tashkent» litseyi o'quvchisi.

BARKAMOLLIK SARI YANA BIR QADAM

II maxsus Olimpiya o'yinlaridan

Vaqt allamahal bo'lsada, quvonchdanmi, hayajondanmi, Shoiraning ko'ziga uyqu kelavermadi. O'rnidan turib, safar uchun hozirlab qo'ygan sport sumkasidagi anjomlarini yana bir bor ko'zdan kechirib qo'ydi. Axir u ertaga poytaxtga, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida bo'lib o'tadigan II maxsus Olimpiya o'yinlari musobaqalariga boradi-da. Shu bahonda kundan-kunga chiroq ochib borayotgan poytaxtimizni tomosha qiladi, talaygina do'stlar orttiradi...

Shoira tug'ma nogiron qiz, oyoqlari o'ziga yaxshi bo'ysunmaydi. Shunday bo'lsa-da, taqdirga tan berib, nogironlik aravachasiga mixlanib qolishni istamadi. Oyoqlarida biroz og'riq sezsa, tinimsiz mashq qilaverdi. Keyinchalik sportning yengil atletika turi bilan shug'ullana boshladi.

Ustozlarining mehri, yaqinlarining daldalari sabab, yaxshigina natijalarni ham qo'lga kiritdi. Endi esa poytaxtga, o'zi kabi imkoniyati cheklangan tengdoshlari bilan bellashishga otlandi.

11 noyabr kuni tantanali ravishda ochilgan mazkur Olimpiadani o'tkazishdan maqsad, aqli zaif,

imkoniyati cheklangan bolalar bilan sog'lom bolalar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashdan iborat edi.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Speshl Olempeks tashkiloti, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jam'armasi, Bolalar sportini rivojlantirish jam'armasi va boshqa qator jam'armalar, tashkilotlar hamkorligida uyushtirilgan ushbu musobaqalarda yurtimiz hududlaridan hamda Rossiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlaridan kelgan 350 nafar o'g'il-qiz sportning bir necha turlari bo'yicha musobaqalashdilar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, Respublika Xotin-qizlar Qo'mitasi raisi Svetlana Inomova tabrik so'zi bilan ochib bergan Olimpiadaning ochilish marosimida ko'plab



studiyalari, raqs dastalari, yosh estrada xonandalari ijrosidagi kuy va qo'shiqlarni tomosha qildilar.

Keyin esa qizg'in bellashuvlar boshlanib ketdi. Ishtirokchilar «Umid» bolalar sport majmuasida basketbol va stol tennisi, Respublika Olimpiya zahiralari kollejida yengil atletika va futbol bo'yicha bellashdilar. Bir so'z bilan aytganda, ular barkamollik sari yana

bir qadam tashladilar. 100 dan ziyod tajribali hakamlar kuzatib borgan sport bellashuvlari juda qizg'in kechdi.

Musobaqada munosib ravishda g'oliblik shohsupasini egallagan yosh sportchilar oltin, kumush va bronza medallarini, hamda qimmatbaho sovg'alarni qo'lga kiritishdi. Homiy tashkilotlar o'rin ololmagan ishtirokchilarni

ham unutishgani yo'q, ularga ham esdalik sovg'alari ulashishdi.

So'ngra Olimpiya tashkilotchilari biz kattalarning mehriga, e'tiboriga hammadan ham ko'proq muhtoj bo'lgan qalbi o'ksik bolajonlarni poytaxtimizning diqqatga sazovor joylari, so'lim go'shalari bo'ylab sayr qildirdilar.

Olimpiadaning yopilish marosimi bayramona ruhda o'tdi.

Bir necha kun ichida bir-birlari bilan do'stlashishga ulgurgan bolajonlar ko'zlarida yosh bilan xayrlashishdi.

Menga ayniqsa Toshkent Davlat sirkidagi tomoshalar juda yoqdi, deydi Shoira hayajondan ko'zlari porlab. Poytaxtimiz men tasavvur qilgandan ham go'zalroq ekan. Bu yerda ko'rganlarimni o'rtoqlarimga ham so'zlab beraman, rasmlarimni ko'rsataman. Ularning menga juda havasi keladigan bo'ldi-da...

Shunday taassurotlar bilan uyiga qaytayotgan Shoiraning kemtik qalbi quvonchlarga to'la edi. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, shu yurtning aziz va ardoqli farzandi ekanligini his qilishdan ortiqroq baxt bormi dunyoda?

Bunday o'y-xayollar Olimpiadaning boshqa ishtirokchilari qalbidan ham kechayotgan bo'lsa, ne ajab?!

Faxriddin HAYITOV,
Nargiza AKBAR qizi.

Tahririyatimizga iymonibgina salom berganicha kirib kelgan 4-5 nafar o'quvchilar o'zlarini Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyining 6-sinf o'quvchilari deb tanishtirishdi. Odatdagidek bolajonlarning iqtidori bilan qiziqdik. Ular orasida shirali ovozi bilan ajralib turgan Bahodir ismli bolakayni suhbatga chorladim:

SHAHARDA HAM ISH KO'P EKAN

-Ko'rinishingizdan 4-sinf o'quvchisiga o'xshaysiz-a?

-To'g'ri topdingiz. Maktabimizda ustozlarim bilimimni sinab ko'rib, yuqori sinfga o'tqazishgandi. O'tgan yili litseyga o'qishga qabul qilindim.

-Yuqori sinfda o'qish qiyin emasmi?

-Oson emas albatta, lekin harakat qilapman.

-Bahodirjon, nimalarga qiziqasiz?

-Yoshligimdan she'r yozishga qiziqaman.

O'rtoqlarim bilan darsdan so'ng mol boqardik. Uyum uyum o'tlarning ustiga o'tirib olib, tabiatdan, qushlarning tinimsiz chug'urlashidan, ninachilarning dala gullariga qo'nib uchishlaridan zavqlanib she'rlar yozardim. Qishloqdoshlarimiz haqida-chi, eh-he, katta-katta dostonlar yozsa bo'ladi.

-Shaharda mazza-da, ish kam, nima dedingiz?..

-Yo'q, qishloqdagidek shaharda ham ish ko'p ekan. Har kuni peshingacha darsda bo'lamiz, so'ngra qo'shimcha mashg'ulotlar, kechqurun esa tinimsiz dars tayyorlayman. Badiiy kitoblarni o'qiyman. Bo'sh vaqtning o'zi yo'q. Shunday bo'lsa-da, qishloqning o'rni bo'lakcha. Havosi toza. Keng dalalar...

-Qizlar bilan ham sirlashasizmi?

-Albatta. Sinfimizda Mo'mina ismli do'stim bor. U ham turli mavzularda she'rlar, maqolalar, qatralar yozib turadi. Ochiqko'ngil, chaqimchi emas. Biz bir-birimiz bilan yaxshi chiqishamiz.

-Yomon odatlaringiz ham bormi?

-Ha, biroz ko'p gapiraman. Nima qilay, gapirgim kelaveradi. O'zimni tiyish uchun aytmoqchi bo'lgan ko'proq fikrlarimni qog'ozga tushiraman...

So'lim Samarqandning Jomboy tumanidan poytaxtga kelib tahsil olayotgan Bahodir Hasanovning teran fikrlari chindan-da tahsinga loyiq. Uning kelajakda o'z orzusiga yetib, halol va vijdonli prokuror bo'lishiga ishonamiz.

Suhbatdosh Nuriddin HAYDAROV.

ENG MAROQLISI - ERTAK TINGLASH

Aziz bolajonlar, siz bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz? Uning oila a'zolaringizga

Alisher MUXTOROV, 9-«D» sinf o'quvchisi:

-Men darsdan bo'sh vaqtlarimni duradgorlik to'garagida o'tkazaman. U yerda turli uy-ro'zg'or buyumlari va o'yinchoqlar yasaymiz. Uyimizda ham men yasagan buyumlar juda ko'p. Duradgorlikni mukammal o'rganib olsam, oyijonimga va sinf rahbarim Muattar opaga ro'zg'orda kerakli bo'lgan anjomlarni yasab, sovg'a qilish niyatidaman.

Sinf rahbarimiz Muattar ona bizning dilimizdagini so'zsiz tushunadilar. Erta tongdanoq huzurlariga oshiqamiz. Ular onamizdek mehribon.



ham nafi tegadimi? Sizlarga tanishtirmoqchi bo'lganimiz Abu Rayhon Beruniy nomidagi 243-maktab o'quvchilari Alisher, Jo'rabek va Nargizalar bo'sh vaqtlarining har daqiqasidan unumli foydalanisharkan.

Jo'rabek MUXTOROV, 7-«D» sinf o'quvchisi:

-Menga bunday taxta ishlari yoqmaydi. Men haqiqiy sportchi bo'lish niyatidaman. Shuning uchun darsdan bo'sh vaqtlarim kimboksing to'garagiga qatnayman. Mashg'ulotlardan qaytgach, o'rgangan yangi mashqlarimni oyijonimga, akam va singlimga ko'rsatib beraman. Kelajakda o'zim ham trenerim kabi ustozlik qilish niyatidaman.



Bo'sh vaqtim - xush vaqtim

Nargiza MUXTOROVA, 4-«E» sinf o'quvchisi:

-Mening akalaringa o'xshab bo'sh vaqtim unchalik ko'p bo'lmaydi, sababi, 2 yoshli ukam Asadbekka qarashim va oyijonimga uy yumushlarida ko'maklashishim kerak. Chunki bittagina qizlarimanda. Lekin munchoqlar tikishni, ulardan ism yozib, taqinchoqlar yasab, yaqinlarimga, sinfdoshlarimga sovg'a qilishni yoqtiraman. Kelajakda kim bo'lishimni hali o'ylab ko'rganim yo'q. Oyijonimga va sinf rahbarim Zuhra opalarga havas qilaman...



Bu ajoyib aka-singillar yana dam olish kunlarida buvilariga bog'yumushlarida ham yordamlashar ekanlar. Eng sevimli mashg'ulotlari - buvilari aytib bergan ertaklarni eshitib, daraxt va gullarni parvarishlash ekan. Xo'sh bolajonlar, sizning bo'sh vaqtingiz qanday o'tayпти? Bu haqda tengdoshlaringizga hikoya qilib bering.

Ma'suda VOHIDOVA yozib oldi.

«DUNYO «YANGI AVLOD» NIGOHIDA»

Yaqinda "Yangi avlod" media markazi tomonidan o'tkazilgan yosh jurnalistlar festivali ana shunday nomlanadi. 11-12-noyabr kunlari "Sen yolg'iz emassan fondi" binosida bo'lib o'tgan bu festivalga yurtimizning turli viloyatlaridan hamda Qoraqalpog'iston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldoviya, Rossiya kabi respublikalardan tengdoshlarimiz o'z ishlarini yuborishdi. O'tgan yili "Yangi avlod" media markazi bu festivalni respublika miqyosida o'tkazgan edi. Bu yil esa u xalqaro darajaga ko'tarildi. Festival 4-ta yo'nalish, ya'ni, "Menga so'z bering" mavzusida bir daqiqali videorolik, "Hayot darsi" mavzusida maqola, hikoyalar, "Do'stim bilan suhbat" mavzusida radio material, "Issiq kulcha" mavzusida telelavhalar tayyorlash bo'yicha bo'lib o'tdi. O'z ijod mahsullarini yuborgan 100ga yaqin yosh jurnalistlar Toshkent shahriga, ya'ni, festivalga taklif etildilar. Ular uchun qiziqarli kun tartibi tuzildi. Axir mehmonlarimiz uchun poytaxtda o'tkazgan 2 kunlari unutilmas darajada bo'lishi kerak-da...

Shunday qilib, kutilgan daqiqalar ham keldi. Festival tantanali ravishda ochildi. Hay'at a'zolari bo'lib, UNICEF, WORLD VISION, «Kamolot» YO.I.H tashkilotlaridan, kinovideo havaskorlar jamiyatidan va «Tong yulduzi» gazetasining bosh muharriri kelishdi. Ularga dastlab o'qib, baho berishlari uchun maqolalar taqdim etildi. So'ngra, hay'at a'zolari roliklarni tomosha qilishga kirishib ketishdi. Bu paytda esa qatnashchilar bir birlari bilan fikr almashishdi. Qozog'istondan tashrif buyurgan tengdoshlarimiz suratlar orqali o'z shaharlari, so'lim go'shalarini tanishtirishdi. Yoshlarga mo'ljallangan ko'rsatuvlari, radio eshittirishlari haqida gapirib berishdi, ishtirokchilarga gazetalar tarqatishdi. Shu tariqa biz qozog'istonlik tengdoshlarimiz hayoti haqida oz bo'lsa-da, ma'lumotga ega bo'ldik. Bizga ularning ichidan «SMS» nomli gazeta juda yoqdi. O'z navbatida biz "Yangi avlod"chilar ham ularni diyorimiz, milliy kiyimlarimiz, udumlarimiz, bolalar uchun chop etilayotgan gazeta va jurnallarimiz

bilan tanishtirdik. "Yangi avlod" a'zolari tomonidan tayyorlangan ko'rsatuvlarni namoyish etdik. Tushlikdan so'ng festival qatnashchilari Respublika «Kamolot» YO.I.H binosiga borishdi.

Shu kunning o'zidayoq barcha ishtirokchilar bir birlari bilan yaqindan tanishib, ancha inoqlashib qolishdi. Bizga qozog'istonlik Janara, Aleksandr, Merim kabi tengdoshlarimizning ijodlari juda yoqdi. Festivalning birinchi kuni ana shunday yakunlandi. Keling, ishtirokchilarning taassurotlarini bir eshitib ko'raylik:

1 Men Aida Davletova Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridan kelganman. Bu festivalda qatnashayotganimdan juda xursandman. Ko'plab qiziqarli, ma'noli roliklarni tomosha qildim. Ular haqidagi fikr-mulohazalarimni bildirib, tengdoshlarim bilan o'rtoqlashdim. Yana, juda ko'plab do'stlar orttirdim. Keyingi

festivalga tayyorgarlik ishi ketayotganligini eshitib Toshkentga keldim. Qo'limdan kelgancha "Yangi avlod" xodimlariga tayyorgarlikda yordam berdim va bundan juda xursandman.

Festivalning birinchi kuni juda yahshi o'tdi, ikkinchi kuni ham qizg'in boshlandi. Bu kun telelavhalar ko'rildi. Undan so'ng esa radio-intervyular eshittirildi. Hamda ularni tayyorlagan yosh jurnalistlar bilan tanishtiruv bo'lib o'tdi. Hay'at a'zolarimiz esa barcha yo'nalishlar bo'yicha baholashni o'n ballik sistema orqali amalga oshirishdi. Nihoyat, hay'at a'zolari maqolalarni baholaydigan paytga ham yetib keldik. Biz esa shahar b o ' y l a b

Tadbir



lauriyat bo'libmiz. Biz bundan juda xursand bo'ldik. Lekin negadir Akmal Ismoilov xafadek edi, nazarimizda. Sababini unung o'zidan so'radik:

- Men roliklar bo'yicha emas, telelavhalar bo'yicha «gran-pri» sohibi bo'lishni orzulagandim. Mayli, keyingi safar yaxshilab tayyorlanaman...

Festival mobaynida biz bir birimizning fikrlarimiz bilan o'rtoqlashdik. Qalin do'st tutunishga ham ulguridik. Shunday qilib, festivaldan barchamiz olam-olam taassurotlar bilan qaytdik. Hozir esa yosh jurnalistlarimiz taassurotlari bilan tanishsak:

- Men o'tgan yili bo'lib o'tgan festivalda ham qatnashgan edim. Bu yilgi festival o'tgan yilgisidan tubdan farq qiladi. Tayyorgarlik jarayoni ham juda katta, raqobat ham kuchli bo'ldi. Qozog'iston, qirg'izistonlik tengdoshlarim bilan fikr almashdim. Juda ko'p do'stlar orttirdim. Bu esa kelajakda egallamoqchi bo'lgan jurnalistika sohasiga katta yordam beradi. Festivalda men faqat maqolam bilan ishtirok etdim. Lekin tengdoshlarimning tayyorlagan rolik, lavhalarini ko'rib, nega ular qila oladi-yu men qila olmayman degan savol tug'ildi va menda ularni tayyolash istagi uyg'ondi. Men ham kelasi yili albatta boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham qatnashaman degan maqsadni o'z oldimda qo'ydim.

Bu 14 yoshlik "Yangi avlod" media markazining a'zosi Nozima Hasanovanning so'zlari edi.

Biz ham o'z taassurotlarimiz bilam o'rtoqlashdikku, lekin sahifamiz cheklangan. Bundan biz aslo xafa emasmiz. Axir sizlar bilan keyingi yil o'tkaziladigan festivalda yana miriqib suhbatlashamiz. Ha, aytganday, sizlarni ham ikkinchi xalqaro festivalimizga taklif etamiz. Albatta o'z ijodingiz bilan qatnashasiz, degan umiddamiz. Uchrashguncha xayr, aziz tengdoshlar!

Yayraxon PO'LATOVA,
Nargiza SADULLAYEVA,
Malohat TO'XTAYEVA
"Yangi avlod" media markazi
a'zolari.



«Eng yahshi video lavha» tanlovi g'olibi Akmal ISMOILOV
(o'rtada) mana shu yigitcha bo'ladi.

yil ham
albatta
qatnashaman.

festivalda

Endi esa Andijon shahridan tashrif buyurgan Durdona Karabayevaning so'zlariga bir quloq tuting-a!

1 Men Andijon shahridan bu

s a y o h a t g a

otlandik. Baholar haqida keyinroq to'xtalamiz, hozir esa sayr haqida o'rtoqlashsak. Shunday qilib, ulug' bobokalonimiz Amir Temur muzeyiga, «Sanvikt» nogiron bolalar jamiyatiga va shu kabi ajoyib go'shalarga bordik. Olam-olam taassurotlar bilan qaytib kelgunimizcha chaqqon hay'at a'zolarimiz g'oliblarni aniqlab, barcha baholarni ham qo'yib bo'lishibdi. Oldinda hayajonli daqiqalar. Siz ham, kimlar g'olib bo'lishdi, deb o'ylayotgandirsiz? Shoshmay turing, hozir e'lon qilaman.

Roliklar bo'yicha eng yuqori o'rin toshkentlik Akmalga, maqolalar bo'yicha qozog'istonlik Aleksandr, radio-intervyu bo'yicha qozog'istonlik Janaraga, telelavha bo'yicha esa andijonlik Durdona berildi. Ularga estalik sovg'alar bilan birgalikda diplomlar ham topshirildi. Bundan tashqari har bir yo'nalish bo'yicha uchtdan laureat ham aniqlandi. Ishonasizmi, biz "Yangi avlod"chi Yayraxon Po'latova va Malohat To'xtayevalar ham maqolalar bo'yicha



Tadbirda boshlovchilik qilgan Muhiddin ALIMBAEV ham tanlov laureyati bo'ldi.

BOBOMGA O'XSHAGIM KELADI

Bilim - inson salohiyatida aks etgan ilkan ko'zgudir. U orqali biz bu serqirra olamni har taraflama ko'ra olishga va talqin etishga muyassar bo'lamiz. Yurtimizda ilm olishga, ta'lim-tarbiya masalasiga jiddiy yondoshilayotgani ham bejiz emas, albatta.

Fan olimpiadalari ham ta'lim tizimida joriy etilgan yana bir bilim o'lchash vositasidir. Har yili kuzgi ta'til mobaynida barcha maktablarda fan olimpiadalarining 1-bosqichi o'tkazilishi yaxshi bir an'anaga aylanib qoldi.

Jumladan, bizning Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi Abdulla maktabimizda ham yuqori sinf olimpiadalari bo'lib o'tdi.

boshlig'imiz Shoira opa ingliz tili fani bo'yicha o'tkazilgan o'tdi. Bu fanning maktabimizda necha bor bilim maskanimizda darslarni kuzatib, tahlil qilgan xorijiy bo'lishgan.

Birinchi bosqichda ishtirok etgan o'quvchilarimiz Xalq ta'limi bo'limi test topshiriqlarini bajardilar. "Mening kasbim" mavzusida insho yozib, turli mavzularda og'zaki suhbatdan o'tdilar. Olimpiada shartlari bo'yicha 92 ball to'plagan 9-"A" sinf o'quvchisi Sa'dulla Rahmatullayev 1-o'rinni egalladi. 2-o'rin esa 82 ball to'plagan Kamola Qodirovaga nasib etdi.

Bunday fan olimpiadalari nafaqat o'quvchilar, balki biz o'qituvchilar uchun ham ma'lum ma'noda sinov vazifasini o'taydi. Shogirdlarimiz bilimni kuzatib, ularga qay darajada bilim beroldik, qayerda kamchiliklarga yo'l qo'yanimizni tahlil qilamiz. Bolalarga yanada chuqurroq bilim berishda yana qanday ilmiy uslublardan foydalanishimiz kerakligi haqida fikrlashamiz.

Endigi rejamiz g'olib o'quvchilar bilan yanada ko'proq shug'ullanib, 2-bosqichda muvaffaqiyatli ishtirok etishlari, maktabimiz sharafigi munosib himoya qilishlariga erishishdir.

Ra'noxon ZIYAYIDDINOVA,
ingliz tili fani o'qituvchisi.

NABIRAMGA GAZETA SOVG'A QILDIM

Ishdan qaytayotib, ko'p qavatli uylar yonidagi maydonchada bolalarga ingliz tilida biyron she'r o'qib berayotgan 6-7 yoshlar chamasidagi bolakayni ko'rib, to'xtadim. Uning yoniga borib, ustozing kim, deb so'radim. Shunda yo'lakdagi o'rindiqlardan birida o'tirgan onaxon faxr bilan, bu mening nabiram, men unga ham buvi, ham ustozman, dedilar. U kishi bilan yaqinroq tanishish istagi tug'ildi menda. Ular Oliy o'qituvchi, Xalq ma'orifi a'lochisi Dilorom opa Eshonxo'jayeva ekanlar.

Toshkent Davlat chet tillar oliygohining ingliz tili fakultetini tamomlagan onaxon ish faoliyatini pedagogika fanlari ilmiy tekshirish instituti qoshidagi 1-maktabda o'qituvchilik qilishdan boshlabdilar. Nafaqaga chiqqunlariga qadar Yunusobod tumanidagi 5-maktabda rus sinflarda o'zbek tili va adabiyoti, o'zbek sinflarda ingliz tilidan o'quvchilarga ta'lim beribdilar. Nafaqaga chiqqanlaridan buyon nabiralarga ustozlik qilayotgan ekanlar.

Nabiralaring ingliz tilida xuddi o'z ona tillaridek bemalol so'zlashadi. Har yili nabiralaring uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'lamiz. Gazetani ular bilan birga o'qiymiz. Hatto bog'chaga boradigan nabiram ham gazetadagi ertak va hikoyalarni berilib tinglaydi. Nabiram Javlon esa gazetadagi maqolalarni bemalol ingliz tiliga o'gira oladi.

Yaqinda nabiramning tug'ilgan kuni bo'ldi. Unga 2006-yil uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'lganligi haqidagi to'lov talabnomasini sovg'a qildim. Nabiram ota-onasi sovg'a qilgan mashina-yu o'yinchoqlardan ko'ra mening sovg'amdan ko'proq quvondi.

Aziz buvijon-u buvajonlar, siz nabirangizga nima sovg'a qildingiz? Hali ulqurmagan bo'lsangiz, «Tong yulduzi»ga obuna qiling. Buning uchun nabiralaringiz ulg'aygach sizdan behad minnatdor bo'lalilar.

Nima ham derdik, nabiralari kelajagi haqida hozirdanoq qayg'urayotgan Dilorom opadek buvijonlarimiz bor bo'lishsin.

Ma'sudabonu ABDUQODIR qizi.

Men Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi "Agroiqtisodiyot" kasb-hunar kollejida "yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich ta'lim" fanidan dars beraman. Ta'lim dargohimizda 900 nafardan ziyod talabalar saboq olishadi. Maskanimizda mamlakatimizning xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviyat-marifat ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ta'lim maskanlarida yoshlarni sog'lom va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda boshlang'ich harbiy saboq o'tilishi muhim ahamiyatga ega. Guruhlarimiz o'rtasida "Shunqorlar" harbiy vatanparvarlik o'yinini muntazam ravishda o'tkazib, g'oliblarni rag'batlantiramiz. Talabalarimiz tuman, viloyat kasb-hunar kollejlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda faxrli o'rinnlarni egallab kelishmoqda.

«TONG YULDUZI» BILAN DO'STLASHING

Yoshligimda bolajonlarning eng sevimli gazetasi "Tong yulduzi"ning har bir sonini sevib o'qirdim. Sinfdoshlarim bilan gazeta sahifalaridagi maqolalarni muhokama qilib, qizg'in bahslashardik. Istagim - hozirgi yoshlarimiz ham o'z nashrlari bo'lmish O'zbekiston bolalari va o'smirlari gazetasi "Tong yulduzi"ga albatta obuna bo'lishsin va sevibmutolaa qilishsin. Shundagina ular ma'nan barkamol insonlar bo'lib yetishishadi.

A'zam SAFAROV,
"Agroiqtisodiyot" kolleji Harbiy ta'lim rahbari.



BOBOMGA O'XSHAGIM KELADI

Otabek Botirov men saboq berayotgan 6-"D" sinfning a'lochi, zukko, izlanuvchan o'quvchilaridan. Bir kuni tanaffus paytida uning oq qog'ozga muk tushgancha nimalarnidir kuyib-pishib yozayotgani diqqatimni tortdi. Sekin yoniga borib qarasam, she'r yozayotgan ekan. O'qib ko'rib, qalami ancha-muncha charxlanganiga amin bo'ldim.

-She'r yozishni kimdan o'rganding, -deya bergan savolimga u iymanibgina shunday dedi:

-Uy vazifalarimni tayyorlab bo'lishim bilan bobojonim Botir Nosirovning huzuriga oshiqaman. Bobojonimning mingdan ortiq turli mavzulardagi maqolalari chop etilgan. Ular "Oltin qasr" fojiasi, "Samo yer farzandi", "Dovulda tug'ilgan bola" kabi sarguzasht-qissalar, "Oq tulpor izidan" 3 qismli videofilm yozganlar.

Bobojonim yozgan she'rlarimni o'qib ko'rib, maslahatlar beradilar. Ularga juda havas qilaman. Men ham bobojonimga o'xshasam deyman.

Qalbida bir olam orzular yashayotgan izlanuvchan o'quvchimdan faxrlanib, unga ijob gulshani sari qo'yayotgan qadaming qutlug' bo'lsin, degim keldi.

Gulsanam SOBIROVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali tumani 300- maktabning rus tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

MEHNAT

Mehnat qilsang astoydil,
Quvonchga limmo-lim dil.
Bir emas, ming rizqingni,
Ter to'kib topishing bil.



ODOBLI QIZLAR

Sinfimizning faxridir,
Odobli qizlarimiz.
Muloyim tabiatli,
Oy kabi yuzlarimiz.



Barcha havas qiladi,
Jilmayib boqishiga.
Tim qora sochlariga,
Sochpopuk taqishiga.

Otabek BOTIROV,
6-"D" sinf o'quvchisi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

- Suv bor-da, axir!

- Yo'g'-e, - deb dik etib o'rimdan turib ketibman.

Boymurod aka «yuring» degandek, oldinga tushib, yo'l boshladi. Jarning adog'ida rostanam buloq bor ekan. Ikki qafichgina temir quvurdan jildirabgina oqib turar, nari ketolmas, shu yerning o'zida yerga singir edi. Atrofni ninachi, kapalak, shilliqurt bosgan, loyda tulki, it, qushlarning izi bor edi. Suvni hovuchimga to'plab-to'plab, bir alhamdudan, ming alhamdu aytib, to'yib-to'yib ichdim.

- Mazasi, o'zimizni qo'tir buloqqa o'xshaydimi? - so'rayman tanam yayrab. Endi menga hech qanaqa kennoyini keragi yo'q, har qancha o'tin bo'lsa ko'tarib ketadigan bir kelbatga tushgan edim.

- O'shada shu, qo'tirbuloq bettan qochib, ashag'dan chiqqan, - dedi Boymurod aka, - o'xo'o'o'... bir payitlar qo'tirbuloq degani yer ostidan guldirab chiqardi. Atrofida quloq yetmas tollar o'sardi... Xo'p ziyorat qiladigan joylar edi-da! Deganda qochirvorishdi-ya... - deya achinish bilan menga qaradi Boymurod aka.

- Qo'ysangizchi, Boymurod aka, ho'p gapirasiz-da, buloq-buloq-da, uni ettan betga qochirib bo'larkanmi, - deb jo'rtaga jig'iga tegaman.

- Siz shunaqasiz-da, bizdaqalarni gapiga ishonmaysiz, - deya qizishadi Boymurod aka. - Biz bor gapni aytamiz, yolg'onga do'ppi kiydirmaymiz. Buloq shu yerdan guldirab chiqardi-da, hov eshak o'tlayotgan joyda bir yoyilib olardi, keyin pastga qarab tushib ketardi. Yo'lida tegirmon boridi... Bahori bug'doylarni o'shanda un qilardik. Ja mayin tortardi. U paytlarda hayvonlarga qo'tir ko'p toshardi. Parvo qimasa odamgayam o'tib ketardi. O'sha suv yoyilgan joyda mollarni bir-ikki cho'miltirsak bo'ldiydi, qo'tiri to'kilib, sen ko'r, men ko'r bo'b ketardi.

Xayolimda Boymurod aka ertak aytayotganga o'xshardi. Ipdek jildirab tushayotgan suv qachonlardir tegirmon toshini yurgazganiga ishonib bo'lmasdi. Bu kishi usta hikoyachilarga o'xshardi. Odamni qiziqitirib, yechimini oxiriga asrab qo'yardiki, tan olib aytishim kerak, yaxshi ma'noda hasadimam kelardi. Qalamkash degan nomim bo'la turib, voqealarni Boymurod akachalik o'rni-o'miga qo'yib, marjondek bir ipga tiza olmasidim. Mana, hoziram buloqning qochganidan gap ochdi-yu, boshqa tomonlarga o'tlab ketdi. Oxiri voqea qanday qilib buloqni qochirishgani bilan yakun topishini sezib turibman. Shuning uchun gaplarini bo'lmay eshitaman.

- Shu desangiz, bir kuni, o'shandayam shunaqa yoz edi. Men hov Bel-tepada podani o'tlatib yurardim. Bir uzun yuk moshinasi kelib to'xtadi. Tog'da boqiladigan kolxozlarning mol-qo'ylari shunaqa moshinalarda tashilardi. Bir mahal haligidan uzun-uzun, biqqa-biqqa kaltabaqay bir nimalar chiyillashib tushib kelishdi-yu... Durbunimminan qarasam bari cho'chqa... katta-

a...katta-a. Anakka, yaylovlarimizda boqilmagan cho'chqa qoluvdi, deb jonim hiqildog'imga kelib qarab turdim. Qayerdadir G'azalkat taraflarda cho'chqaxona borligini eshitib qolardim. Hoynahoy ashag'dan obkeganov deb turibman. Shu desangiz cho'chqani boshlovchisi bilasizmi kim bo'larkan? Odam, ha, cho'chqani odam boshlab yurarkan. Bittasi borakan, qaqqa yursa, bir moshin cho'chqa o'shaqqa yuradi, deng. O'sha boshlovchisi cho'chqalarni to'ppa-to'g'ri qo'tir buloqqa olib bordi. Suv yoyiladigan joyda cho'chqalar yayrashdi, yayrashdi... Voybo', cho'chqa deganlari balchiqqa o'ch bo'larkan. To'rt oyog'ini osmonga qilib bir chiyillashadi deng... Keyin bilsam ulargayam qo'tir yuqqan ekan... Bu gap shu kuniyoq qishloqqa tarqaldi. Qo'tirbuloqning suvini hech kim ichmay qo'ydi. Ziyoratchilarniyam qadami uzuldi. Tegirmonam to'xtadi. Xudoning qudrati bilan shu yili qishda ko'chkin bo'ldi. O'o'o'...satta quchoq yetmaydigan tollar, tegirmon deysizmi, barini tep-tekkis qilib ketdi. Ha, yer yutvordi... Keyin bilsak qo'tirbuloq pastdan, hov, siz ko'rgan joydan bilakdek bo'lib chiqqan ekan. Bilasiz, odam etga zo'rg'a tushadi. Tuyuqli hayvonlar yo'lay olmaydi. Jonivor qo'tirbuloq o'ziga qulayroq, panaroq joyni topib chiqqanini qarang, mulla.

- Yuring, bu yerdan tezroq ketaylik, dedim Boymurod akaga qarab.

- Ha, ketaqolaylik, - deya u kishining mitti ko'zlari xavotirdan bejo yiltirab ketdi.

- Qarg'ish tekkan joy ekan, bunaqa joyda uzoq turib bo'maydi, - dedim jiddiy.

- Rost aytasiz, cho'chqalar harom qilganda betti, asti... haaa, - dedi Boymurod aka yana do'ppisini qo'lga olib boshini qashir ekan, - siz ayting-chi, mulla, kim qarg'agan bo'lishi mumkin-a? Men yelka qisdim. - O'shanda domla buva boshlarini yerga egvolib, sarak-sarak qilib, ko'p xafa bo'luvdilar, hoynahoy, o'sha qarg'aganov.

- Bilmadim, bilganim shuki, cho'chqaning haromligi Qur'onda kelgan.

Shunday pokiza joylarni bulg'anishi, oyoq osti qilinishi Xudoga yoqmagani bo'lishi kerak. Ha, Allohning qahri kelgan...

Ikkovimizam xayolga tolib, orqaga qaytdik. Shu payt kutilmagan g'ala-g'ovurdan cho'chib tushdik. Bundoq qarasak, teppamizda bir dunyo odam. Dalabog'dagi qo'sh-nilarimiz. Erkag-u ayol, bola-yu baqra...

- Ma'lum bo'lishicha, Oqtosh «ro'molchaxatni» yetkazgan, kennoyi xavotirga tushib, qo'sh-nilarni oyoqqa tur-g'azib, kelib turishgan joyi ekan.

Boymurod aka «aytmadimmi?» degandek menga qarab qo'ydi. Ro'paramda cho'ltoq dumini likillatib, Oqtosh turardi.

KO'Z TEGDI

«Ro'molchaxat» voqeasidan keyin Oqtosh yanayam mashhur bo'b ketdi. Mabodo tug'sa, bolasidan olaylik deb mulozamat qilganlar qancha? Bunaqa itlar tug'maydi, tug'sa avliyoligi qoladimi, deb itimning narxini oshiraman. Bu yoqda uyimam ko'tarilib, ko'zga ko'rina boshlagan. Polvon g'ishtlarni judayam quritmay, sal selgishi bilan devorga bosaqolaman. G'isht yaxshi qurimagani uchun ko'tarib devorga mindirish qiyin kechadi. Og'ir-da. Lekin men har bir g'ishtni «bismillo» aytib ko'tarar, shunday deyishim bilan g'isht o'zidan-o'zi devorga chiqib qolgandek bo'lardi. Men aniq-tiniq sezardim Allohning farishtalari yordam berrorishardi. Ish o'rgatuvchi dangasa qo'shnilarim: «G'ishtni yaxshilab quritsangiz-u ko'tarish oson bo'ladi-ya»


deb menga achingan bo'lishadi. «Bunaqa g'ishtlar bir-birining ustiga minib devorda qurisa, ja tishlashib toshmetin bo'b ketadi» deb ataylab qilayotganimni tushuntirmoqchi bo'laman. Keyin bu g'ishtlarni men ko'tarmayapman, birodar, Allohning farishtalari ko'tarishadi, deb qo'shib qo'yaman. «E, haaa... shunaqa demaysizmi», deb ko'zlari alang-jalang bo'lib, jo'nab qolishadi. Ular mana men degan yozuvchi, olim bo'lishmasin, baribir ilohiy mo'jizalardan yosh boladek qo'rqishadi. Men ularga Payg'ambarimiz sallolohi alayhi vas sallam «Bismillosiz boshlangan ishning oxiri kesik», deganlar, har bir ishni Allohning ismi bilan boshlasangiz, charchamaysiz, ishingiz unadi, deyman. Ular «bizda siz aytgan-daqa bo'maydi-da» deb hiringlab kulishadi. Avvalo, Allohning buyurganini bajaring, keyin payg'ambarimiz aytganlarini qiling - besh vaqt

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



Erkin MALIKOV.



namoz o'qing, fitir-sadaqa, zakot bering, ana, undan keyin bo'ladi-da, deb achitib olgim keladi-yu tilimni tishlayman. Bittasiga aytuvdim, paqqos vahobiya chiqarib qo'yayozdi meni. Bo'lmasa, o'zi Ahmad Yassaviyning avlodidanman deb maqtanib yuradi. Islomdan gapirib yakkalanib qolishdan qo'rqaman. Shundog'am ular menga dachaning Shayxi deb nom qo'yib olishgan. E, qo'yinglar, bu nom menga og'irlik qiladi, ana, Yo'ldosh Eshbek turibdi-ku, oppoq kiyinib, qo'lidan tasbeh tushmaydi, keyin unda osmonning kalitlariyam bor, xohlagan sayyorasidan xohlagan gumanoyidni chaqira oladi, buni ustiga ekstrasens, deyman. Meni Shayx deyishlariga boshqa bir sabab ham bor. Garchand namoz o'qishga jamoa to'planmasayam besh vaqt azon aytaman. Ovozim tog'larga urilib, bir guldirab beradi. Dastlab azonni ichingizda ayting degan takliflar ham bo'ldi. Tavba, tuppa-tuzuk ilmi odamlar shunday deb turishsa. Azonniyam hech jahonda ichda aytib bo'larkanmi? Azon bu odamlarni ibodatga chaqirish-ku. Najotga shoshilinglar! Gunohlardan forig' bo'lishga shoshilinglar! Uyqudan namoz abzal deymanku. Bu taklifdan qattiq hafa bo'lganimni qo'shnilariga ochiq aytdim. Har tugul ko'pchilik tarafimni oldi. Hech bo'lmasa, azonimdan soat nechchi bo'lganini bilib olisharkan. Keyin ovozim ko'pchilikka yoqarkan, allaqanday xayollarga toldirib ularga ilhom parilarini chaqirib berarkanman. Men ayrimlarning quloqlariga azon ovozi nimaga yoqayotganini bilardim. Ularga ism qo'yish marosimida, albatta, qulog'iga azon aytilgan. Quloq pardalari azon va takbir bilan ochilgan. Shuning uchun bu quloqlarga azon, ajib bir sehrdek yoqadi. Azon ovozi yoqmaydiganlarning qulog'iga azon va takbir aytilmagan. Albatta, buning uchun ular ayibdor emas. Yo azon aytib ism qo'yadigan odam bo'lmagan, yo ota-onalari g'irt kommunist bo'lishgan. Bu gaplarni ularga aytib bo'ladi hozir? Aslo!


(Davomi bor.)

USTOZ

(Ustozim Yo'ldosheva Saodat Botirovnaga bag'ishlanadi)

Qo'lga ushlatib qalam, Alifbe o'rgatdingiz. Ko'zingiz ko'rmasin nam, Deymiz ustoz barchamiz. To'rt yil o'qib o'rgandik, Bo'yimiz ham cho'zildi. Sizning iliq mehringiz, Qalbimizga yoyildi. Harf tanidik, ham hisob, Odob, ahloq va mehnat. Bilimingiz behisob, Doimo deymiz rahmat. Sizsiz ikkinchi ona, Ham ziyoli mardona. Qalb so'zlarim sizgadur, Ko'p yillar yashang yana.

Jamshid AHMADALIYEV,
Toshkent shahar, Hamza
tumanidagi
282-maktabning 4-"V" sinf
o'quvchisi.



Sog' yurak - tog' yurak

USTOZ VA SHOGIRDLAR
BELLASHUVI

Kollejimizda tez-tez bo'lib turadigan sport bellashuvlari asosan o'quvchilar orasida uyushtirilib, g'olib va mag'lublarni saralab berardi. Bu galgisi nafaqat o'quvchilar, balki sportsevar o'qituvchilar orasidan ham saralarini aniqlab berdi.

O'tgan hafta kollejimizning "E'lonlar taxtasi"da bir e'lon o'qigandik. "Yaqinda kollejimizda talabalar va o'qituvchilar ishtirokida sport musobaqasi bo'lib o'tadi. Qiziqarli bellashuvga marhamat!" deyilgandi unda.

Musobaqa kunini intizorlik bilan kutdik. Shu kuni sport zalimizga talabalar sig'may ketishdi. Axir kollejimiz rahbari O.Asadov hamda tarix o'qituvchimiz Po'lat aka Qosimov va boshqa ustozlarning o'z shogirdlari bilan bellashishlarini ko'rishni kim ham xohlamaydi deysiz?!

Ustozlar shogirdlarini, shogirdlar esa ularni ayashdimi, xullas hisob teng bo'ldi.

Barno ISABOYEVA,

Poytaxtdagi Matbaa kasb-hunar kolleji talabasi.

OMADING KULSIN, DO'STIM!

Yaqinda Respublika kurash federatsiyasi, Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan yana bir tadbir bo'lib o'tdi. O'zbekiston «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasi sovrini uchun 14-17 yoshli o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan bu musobaqa qatnashchilari orasidagi abjirgina bir bolakay ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 79- maktabning 8-sinf o'quvchisi Saidinomiddin Sadibaqosov bu nufuzli bellashuvda muvaffaqiyatli ishtirok etib, turnir g'olibi bo'ldi va musobaqaning respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Saidinomiddin uch yildirki, kurash bilan jiddiy shug'ullanayapti. Otasi Qurbonpo'lat Mirzayev ham kurash tushib, katta davralarni qizitgan, chavandozlik qilgan. Uning farzandlari Alisher va Karomatillo ham sportga havasmand yoshlardan. Lekin Saidinomiddin kurash desa hamma narsani unutadi-qo'yadi. Mashg'ulotlarni kanda qilmaydi.

U kurash sirlarini dastlab amakisi, sport ustasi Toshmurod Mirzayevdan o'rgandi. Ayni paytda esa, tumandagi Bolalar va o'smirlar sport maktabi murabbiyi Abduholiq Karimov rahbarligida shug'ullanmoqda. Qator turnirlarda ishtirok etgan Saidinomiddinning imkoniyatlari juda keng. U «Yoz-2005» musobaqalarida viloyat chempioni bo'lgan bo'lsa, «Umid nihollari»da sovrindorlar safidan o'rin oldi. Yosh kurashchi raqibini hurmat qilish lozimligini yaxshi biladi. Uning imkoniyatlarini puxta o'rganib, kuchi va mahoratiga to'g'ri baho beradi. Bu esa sportchi uchun muhim fazilat hisoblanadi. Saidinomiddin kurash olamiga endigina kirib kelayapti. Kelajakda u Abdulla Tangriyev, Akobir Qurbonovdek kuchli polvon bo'lish orzusi bilan yashamoqda.

Orzularing amalga oshsin, Saidinomiddin!

Xurshida BOYMIRZAYEVA.

Dam olish kuni bo'lishiga qaramay bobom meni barvaqt uyg'otdilar. Ularning bu odatlari menga yaxshi tanish. Demak, biron bir kurash musobaqasini tomosha qilishga borarkanmiz-da, deya xursand bo'lib o'rnimdan turib ketdim.

Yanglishmagan ekanman, shahrimizning qoq markazida joylashgan sirk maydonida haqiqiy kurash bayrami bo'layotgan ekan. Polvonlarning gavda va mushaklariga havas

mening ham qiziqishim ortdi.

Bellashuv boshlandi. Katta polvon raqibining belbog'idan ushlab siltalab o'ziga tortdi. Lekin natija bo'lmadi. Qo'llarini kichik polvonning belbog'iga mahkam o'radi-da, kuch bilan siltalab yana tortdi. Raqibi yiqilavermagach, senimi hali, degandek bir aylantirib ham ko'rdi, foydasi bo'lmadi. Zaldagi hayajonli, qiyqiriqlar kichik polvonga dalda berdimi, u katta

POLVONLAR KO'P OVQAT
YEYISHADIMI?

bilan boqib, bobomni so'roqqa tutaman: "Polvonlarning kuchi nega ko'p bo'ladi? Ular juda ko'p ovqat yeyishadimi?"

-Savollaringni keyin berasan bolam, hozir bellashuvni tomosha qilsang-chi, deyidilar bobom davradan nigohlarini uzmay...

Gilamga andijonlik va farg'onalik polvonlar chiqdilar. Ularni olqishlar bilan kutib olgan tomoshabinlar orasida shivir-shivir boshlandi: "90 kiloli polvon bilan 65 kiloli polvon tushyapti". Bu gaplarni eshitib

polvonni dast ko'tarib, osongina «halol» yiqitdi. Sirk binosi kuchli qarsaklar zarbidan zirillab ketgandek bo'ldi, go'yo. Bobom quvonganlaridan meni mahkam quchib oldilar. Ularga qo'shilib men ham, yashang polvon, deb yuboribman...

Tomoshadan so'ng o'zimcha xulosa chiqardim: "Demak, ko'p ovqat yegan bilan hamma ham polvon bo'lib qolavermas ekan-da".

Uyga qaytarkanmiz, bobomni kuzataman: Kayfiyatlari a'lo, lotoreyadan katta yutuq chiqqan odamdek xursandlar. Kayfiyatlari yaxshiligidan foydalanib so'radim: "Ertagayam kelamizmi?"

-Endi Xudo xohlasa, kelasi yil kelamiz bolam, -dedilar bobom ishonch bilan.

-Bobojon, tomoshada hind polvonlarini ham ko'rdim. Nima, ular ham o'zbek kurashini biladilarmi?

-Bu bellashuv Hindistonning atoqli arbobi La'l Bahodir Shashtri xotirasiga bag'ishlangan turnir edi. Uch kun davom etgan bu turnirda 73 kilogrammdan 90 kilogrammgacha bo'lgan kuragi yer iskamagan pahlavonlar bellashishdi. Haligi savolingga esa javobim quyidagicha: «Polvonlikning ham o'z sir-u sinoatlari bor, bolam...»

Ma'mura MADRAHIMOVA.

KELING, QIZIQARLI
TEST YECHAMIZ

1. Aholisi sut ichmaydigan mamlakat?

A) Hindiston B) Xitoy C) Fransiya D) Ispaniya.

2. Dunyoda qaysi dengizning suvi eng sho'r hisoblanadi?

A) O'rta Yer dengizi B) Kaspiy dengiz C) Qora dengiz.

3. Dunyoda nuqul sut bilan oziqlanadigan qabilalar?

A) Masay B) Samburu (Afrika).

4. Umuman qo'y go'shti yemaydigan xalq?

A) Yaponlar B) Nemislar C) Xitoylar D) Tojiklar.

5. Insoniyat kashf etgan qadimiy ne'matlardan birini aniqlang?

A) Non B) Choy C) Pishloq D) Saryog' E) Qahva.

6. Dunyodagi eng yaxshi choylar vatani?

A) Gruziya B) Armaniston C) Hindiston D) Ozarbayjon.

7. Italiya pazandaligida eng sharaflı taom nomi nima?

A) Makaron B) Lag'mon C) Guruch D) grechka.

8. Pazandalikda eng ko'p isrof bo'ladigan narsa nima?

A) Energiya B) Mador C) Mablag' D) Vaqt.

9. Sabzavot masallig'ini eng ko'p ishlatadigan mamlakat?

A) Italiya B) Fransiya C) Germaniya D) Xitoy.

10. Jahon pazandaligida achchiq qalampirni eng ko'p ishlatadigan xalq?

A) Italiya B) Hindiston C) Xitoy D) Koreya.

Sardor SODIQOV tayyorladi.

O'CHA

(Hikoya)

May oyining boshlari edi. Kutilmaganda bir oqshom hovlida bog'loqliq turgan Baytal qulini qandaydir yirtqich nimtalab, ovchini dog'da qoldirib ketdi. Oradan bir hafta o'tar-o'tmas, qo'tondagi mollarning ham tinchi yo'qoldi. Besh-oltita qo'y bo'g'izlangan, biri esa dom-daraksiz yo'qolgandi.

Ovchi Pirim amaki alamini kimdan olishni bilolmay boshi qotdi. Qiziq, shu vaqtgacha biron yirtqich jonzot uning hovlisiga yaqin kelmagandi. O'ylay-o'ylay oxiri ovchi xayolidan sim to'rda turgan bo'ri bolasi o'tdi-yu, kalavaning uchini topgandek bo'ldi.

...Bu voqea bundan roppa-rosa ikki hafta ilgari bo'lgan edi. Pirim amaki navbatdagi ov tadorligini ko'rayotganida, kichik o'g'li Hasan ham dadasiga ergashdi.

Tong yorishgach, ular yo'lga chiqdilar. Hasan tayog'ini ko'targancha orqada borardi. Ota va o'g'il balandlikka ko'tarilgan sari maysalarning shitirlashi va buloq suvlarining toshdan-toshga urilib, shildirashi ularga zavq bag'ishlardi. Ovchilar tog' cho'qqisiga yaqinlashganlarida quyosh tikkaga ko'tarilgandi. Katta harsang tosh yonida quyosh nurida toblanib yotgan bir necha bo'ri bolalarini ko'rib qolishdi. Hali



bir oylik ham bo'lmagan bo'ri bolachalari odamlarni ko'rib, yashirinishga tushdilar. Hasan esa ulardan birini qo'lidagi tayog'i bilan

bosib ushladi-da, qopga joyladi. U qilgan ishidan xursand edi... Kun bo'yi qopdagi jonivor bilan andarmon bo'lib, otasiga ham tushov bo'ldi. Shu kuni ov negadir baroridan kelmadi.

Uyga kelgach, Hasan bo'ri bolasi uchun sim to'rli joy hozirladi. Yirtqich bolasi uchun har kuni vaqt ajratib, uning parvarishiga jiddiy qaray boshladi. Bo'ri bolasi yangi joyda zerikkanidanmi, kechalari uvlab chiqardi. Qo'ytosh tog'laridan ham bo'rilarining uvlashi ahyon-ahyonda eshitilib turardi.

...Pirim amaki qafasdagi bo'ri bolasini yana tog' cho'qqisiga tashlab kelgandan so'nggina, uyida tinchlik hukmronlik boshlandi.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati, G'allaorol

tumanidagi
78- maktabning oliy toifali
o'qituvchisi.

HORMANG, YOQUBJON BOBO!

Inson biror bir kasbga astoydil mehr qo'ymasin ekan. Qo'ydimi, boshqa kasb egasi bo'lgan taqdirda ham uni ohangrabodek o'ziga tortaverarkan. Sevimli adibimiz Yoqub aka Xo'jayevning hayot yo'li bilan tanishish jarayonida bu fikrning to'g'riligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Bolaligidan adabiyotga mehr qo'ygan Yoqub aka o'rta maktabni tamomlagach, Gidrometeorologiya texnikumida tahsil oldilar. Bizga ob-havo ma'lumotlarini yetkazib beradigan seysmik stansiyada ishlab yurgan kezlarda ham qalbini adabiyotga bo'lgan tashnalik bir zum bo'lsa-da, tark etmadi. Ham ishlab, ham hozirgi O'zMUning fililogiya fakultetida o'qishni davom ettirdilar. Bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan ilk she'rlari va hikoyalari birin-ketin matbuot yuzini ko'ra boshladi. 60- yillarning boshida chop etilgan "Mittivoyning sarguzashtlari" nomli ilk sher'iy to'plami ketidan "Temir bolakay", "Uyimizning sehgari", "Shimollik mehmon" nomli kitoblari ham chop etilib, o'quvchilar tomonidan iliq qarshi olindi. Tinib-tinchimas ijodkorimiz she'rlar yozish bilangina kifoyalaniq qolmay, yurtimizning taniqli bastakorlari bilan hamkorlikda qo'shiqlar turkumini ham yaratdilar.

Umriining aksariyat qismini jurnalistikaga bag'ishlab kelayotgan adibimiz O'zbekiston radiosida muxbir, muharrir, bolalar gazetasida adabiyot bo'limi mudiri hamda Bosh muharrir vazifalarida faoliyat ko'rsatdilar. Bolalar nashrlaridan biroz uzoqlashganlaridan keyin ham, ya'ni, Adabiyot jamg'armasi rahbarining birinchi o'rinbosari, keyinchalik «Yozuvchilar uyushma-



si»da bosh maslahatchi sifatida mehnat qilgan yillarida ham bolajonlar uchun yozishni kanda qilmadilar. Muxlislari bilan bo'lgan uchrashuvlari, bolajonlar bilan o'rnatgan do'stlik rishtalari ijodkorni "Sarguzasht izlovchi Vundurgay", "Vundurgay iztopar", "Uxlayotgan ajdarho g'ori", "Alomat bola sarguzashtlari" kabi ko'plab sarguzashtli hikoyalar va qissalar yozishga undadi. Ushbu asarlari Davlat matbuot qo'mitasi hamda IIV mukofotlari bilan munosib taqdirlandi. "Hammasi qanday bo'lgani haqida", "Nuqul sarguzasht" nomli avtobiografik qissalarini ham bolajonlar katta

qiziqish bilan o'qib chiqishdi.

Yoqub aka ajoyib bolalar shoiri va yozuvchisi bo'libgina qolmay, mohir tarjimon hamdirlar. Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, Shamsi Odil, Haydar Muhammad,

Kavsar Turdiyeva, Usmon Azimov, Azim Suyun, Farog'at Kamolova, Durdona Ro'ziyeva kabi

adiblarimiz

asrlarini rus tiliga tarjima qilib, ular ijodidan rusiyazbon bolalarning ham bahramand bo'lishlariga o'z hissalarini qo'shganlar.

Yozuvchimiz qo'g'irchoq teatri ishqibozlarini ham unutganlari yo'q. "Qirol Tak-tuk", "Temir bolakay", "Hazrati oliylari hech nimaga" kabi pyesalari respublika qo'g'irchoq teatrida va televideniya sahna lashtirildi. Shu mehnatlari evaziga Bolgariyaning Safiya shahrida bo'lib o'tgan xalqaro bolalar teatri festivali qatnashchisi bo'ldilar. Talaygina bolalarbop asarlari ko'plab xalqlar tillariga ham tarjima qilingan, maktab darslik-

lariga, bolalar adabiyoti anatomiyalariga kiritilgan...

Ana shu sevimli adibimiz bugun o'zlarining 70 yoshlarini qarshi olyaptilar. Lekin qarilik gashtini suri-ib, to'rt qavat ko'rpachaning ustida choy ichi-ib yotganlari yo'q. Hali ham qo'llarida qalam. Inson o'z kasbini astoydil sevsa, zavq-u

shavq bilan ishlari, charchash

nimaligini ham bilmas ekan. Ayniqsa, bolalik olamiga yaqin bo'lganlar. Shundanmi, Yoqub aka ham hecham qarimaydilar, bundan 20 yil avval ko'rganimda qanday bo'lsalar, hamon o'shandaylar...

Ayni kunlarda yozuvchining "Doktor Fanning qilmishlari" nomli yangi sarguzasht qissasi hamda taniqli qahramon - G'ayrat Vundurgay ishtirokidagi yangi dedektiv asari nashrga tayyorlanmoqda.

Gazetamizning ko'p sonli muxlislari nomidan sevimli adibimizni tug'ilgan kunlari bilan muborakbod etamiz. "Hormang, Yoqubjon bobo!" deya ulardan yangi-yangi asarlar kutib qolamiz.

Feruza JALILOVA.

AZIZ - KEYIN

Do'stim so'rar maslahat,
Men nima deyin?

Azimjonning bahonasi
-Xo'p, mayli, keyin.
Yo'ldan urar dangasalik,
-Shoshmagin Azim.
Darsingni qo'y, stadionga
Borishing lozim.


Yumshoqqina divanga
Asta yonboshlab,
Ekran sari qashlab.
Attang yana bir kunim,
Behuda o'tdi.
Daqiqalar soatning
Etagin tutdi.
-Bo'ldi, va'da beraman



Qo'lga olsam kitobni,
Nedir shitirlab,
Xitob qilar bir so'zni,
Asta pichirlab.
-Mazza qilib gap sotib,
O'tirsang bo'lar.
Vazifani do'stlaringdan,
Ko'chirsang bo'lar.
Tashvish chekar men uchun
Hattoki xolam.
Ko'ylagingga tugma qadab
Olsang-chi, bolam.
Ishlarim ko'p, xolajon,
Tugmadan bo'lak.
Hozir-chi men multfilm
Ko'rishim kerak.

O'zim-o'zimga.
Bozungarga o'xshaydi,
Futbol ko'zimga.
Ha, do'stlarim to'g'risi,
Nima ham deyin?..
Sinf doshlar nom qo'ydi,
«Azimjon - keyin».
Oltin teng vaqtimni,
Elga oldirmay.
Vazifani bajardim,
Darsni qoldirmay.
Yalqovlikning cho'chimay,
Ta'qib, qahridan.
«Keyin» degan laqabning
O'tdim bahridan...

Tursunboy ADASHBOYEV
tarjimasi.



- | | |
|-------------------|--------------------|
| 1. Texnika ekini; | 5. Maymun; |
| 2. Shirinlik; | 6. Ip o'rami; |
| 3. Padar; | 7. Neft maxsuloti; |
| 4. Torli soz; | 8. Qovun navi. |

Tuzuvchi: Muhammedov K.

TONG
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 13558
Buyurtma N: J 1815

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin
SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Jamila
ERDONOVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45